



## MILLIY G'OYA ORQALI SPORTCHI YOSHLARNI TARBIYALASH DOLZARBLIGI

**O'razboeva D.R**

**Kalit so'zlar:** *jismoniy tarbiya, sport, sport mashg'ulotlari, vatanparvarlik.*

Mamlakatimizda yashayotgan yuzlab millat, elatlardan iborat bo'lgan xalqlarning azaliy qadriyatlaridan iborat bo'lgan g'oyasi, yoshlarni har tomonlama baquvvat, epchil, chaqqon qilib tarbiyalashdan iboratdir. 1991 yilda O'zbekiston o'zining milliy istiqlolini e'lon qilgan kundanoq yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim-tarbiya berish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'targanligi bejiz emas. Chunki, eski zamon tizimi g'oyalarining o'rniga, yangi, hozirgi zamon talabiga mos bo'lgan milliy g'oyalar va ularni yoshlar hayotiga singdirish naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. Biz oxirgi yillar ichida ta'lim muassasalarida olib borgan kuzatishlarimiz natijasi shuni ko'satmoqdaki, o'quvchi-yoshlar o'rtasida hali ham milliy istiqlol g'oya va mafkura yaxshi shakllanmaganligidan darak beradi. Bunda ayniqsa umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarining jismoniy madaniyat dars mashg'ulotlarida qo'yilayotgan maqsadlar milliy istiqlol g'oyasi talabi darajasida olib borilmayotganligini ko'ramiz. O'quv tarbiya jarayoni olib borilayotgan o'quv dargohlarida yoki bilim maskanlaridagi jismoniy madaniyat ta'lim-tarbiya jarayonida qo'yilayotgan maqsadlarida milliy istiqlol g'oyasining tamoyillari o'quvchi-talabalarga to'lig'icha yetkazilmay kelinmoqda. Bu kabi muammolar bugun yuz berib qolgan emas. Yoshlardagi har tomonlama milliy istiqlol g'oyalarini tarkib toptirishda, ta'lim muassasalaridagi jismoniy madaniyat o'qituvchilari va sport murabbiylari asosan fidoiylilik namunalarini ko'rsatishlari zarur. Ya'ni, sog'lom bola – avvalo sog'lom va ahil oilaning mevasidir. Sport ana shunday oilalarni shakllantiradigan eng yaxshi vositalardan biridir. Sport bilan shug'ullangan yigit-qizlar sog'lom va baquvvat, fikri tiniq bo'ladi.



Kelgusida farzandlarini ham shu milliy istiqlol ruhida tarbiyalaydi. Bunday oilalar ko'paysa, butun jamiyatimizning sog'lom muhiti yanada mustahkamlanadi. Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchi-talabalarning iqtidori, ya'ni zehni shunchalik kuchliki, ular ko'rgan va eshitgan narsalarini zudlik bilan o'zlashtirib qabul qiladilar. Yoshlar tarbiyasida ijobiy harakatlarni tarbiyalash ularda milliy istiqlol g'oyasini tarkib toptirishni yuqori bosqichga ko'tarish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishni tavsiya etamiz:

1. Ta'lim-tarbiya maskanlaridagi jismoniy madaniyat dars mashg'ulotlari jarayonida milliy istiqlol g'oyasi asosida yaratib berilgan imkoniyatlarni targ'ibot qilish. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tafakkur tarzini va kasbiy madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy muammolari

2. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qaysi holatlarda ko'tarilishini asoslab berish, unda sport bellashuvlari boshlanishi, sportchilarimiz musobaqalarda sovrinli o'rinlarni olganda ko'tarilishini har tomonlama ta'riflab berish hamda uning tarbiyaviy ahamiyatini bosqichma-bosqich o'quvchi-talabalarga singdirib borish.

3. O'zbekiston Respublikasida yoshlarni har tomonlama kamol toptirishda uch bosqichli

sport musobaqa tizimining o'rni va ahamiyatini singdirib borish.

4. O'quvchi-talaba yoshlarga fanlardan bilim egallashlari, hamda sport turlari bilan muntazam shug'ullanishlari uchun yaratib berilayotgan sharoitlar, milliy istiqlol g'oyasi asosida amalga oshirilayotganini tarkib toptirish.

5. O'zbekiston sportchilari muvaffaqiyatlariga erishishlarida umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va oliy bilim dargohlarida ta'lim-tarbiya jarayonini "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida tashkil etilishini milliy va mafkuraviy g'oyalarning o'rni va ahamiyatini singdirib borish. Yoshlar tarbiyasida bugungi kunda asosiy o'rin tutadigan bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini yanada rivojlantirishda asosiy vositalaridan biri bo'lgan milliy istiqlol g'oyasi vazifalaridan kelib chiqqanligining har tomonlama yoshlar ongiga singdirib borish zarur deb o'ylaymiz. Yuqorida zikr etilgan fikrlarni amalga oshirish har qanday holatda ham nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar fan o'qituvchilari, balki jismoniy madaniyat o'qituvchilari va sport murabbiylari zimmasiga yuklatilgandir. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasida jismoniy madaniyat o'qituvchisi va sport murabbiylari o'ta bilimli bo'lishlarini taqozo etadi. Shularni inobatga olgan holda yoshlar tarbiyasiga asosiy ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi kuch jismoniy madaniyat o'qituvchisi va sport murabbiylari ekanligini olib borgan kuzatishlar ko'rsatdi.